

## MILLIY-MA'NAVIY QADRIYATLARIMIZDAN YOSHLAR TARBIYASIDA FOYDALANISHNING TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

*Ilyos Janizoqov*

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, O'zbekiston*

[ijanizakov@inbox.ru](mailto:ijanizakov@inbox.ru)

**Annotatsiya.** Hozirgi davrda milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida yilda emas, balki har bir hafta va oyda ko'plab yangiliklar, o'zgarishlar bo'lib turibdi. Ushbu maqolada milliy qadriyat, milliy urf-odatlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, milliy urf-odat, milliy madaniyat, ma'naviy dunyoqarash, ong va psixika, ijtimoiy ong, dunyoqarash, millat va elat.

**Аннотация.** О восстановлении наших национальных ценностей в настоящее время Каждую неделю и месяц, а не каждый год появляется много новостей и изменений. В данной статье освещается влияние национальных ценностей и национальных традиций на воспитание молодежи.

**Ключевые слова:** Ценности, национальные традиции, национальная культура, духовное мировоззрение, разум и психика, общественное сознание, мировоззрение, нация и народ.

**Abstract.** Regarding the restoration of our national values in the current period not every year, but every week and month, there are a lot of news and changes. In this article, the influence of national value, national traditions on the education of young people is highlighted.

**Key words:** Value, national tradition, national culture, spiritual worldview, mind and psyche, social consciousness, worldview, nation and people.

**Kirish.** Hozirgi davrda milliy qadriyatlarimizni tiklash borasida yilda emas, balki har bir hafta va oyda ko'plab yangiliklar, o'zgarishlar bo'lib turibdi.

Mustaqillik sharoitida milliy madaniyatimizni rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish sohasida erishgan ulkan yutuqlarimizdan yana biri - o'zbek tiliga davlat maqomi berilganligidir. Bu voqea hayotimizda, ongimizda katta burilish yasadi.

Istiqloq tufayli ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi o'sib, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga poydevor yaratmoqda. Har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'iy nazar, eng avvalo o'zining milliy ongi va psixologiyasida namoyon bo'ladi.

Milliy ong - ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan etnik ongining asosiy shaklidir. Ma'lumki, ijtimoiy ong jamiyatning, ishlab chiqarish munosabatlarning o'zida aks ettiruvchi, uning ma'naviy hayot darajasini ifodalovchi xis-tuyg'u,

g'oya va qarashlarning majmuidir. U jamiyatdagi, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, faoliyat, diniy, etnik qarashlar, kechinmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning intihosidir. Boshqacha aytganda ijtimoiy ong - ob'ektiv olam va ijtimoiy borlikning kishilar ongida aks etishidir. Shunday ekan, har bir xalq, elat va millat o'zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga egadir. Mazkur etnik ongning tarkibiy qismini urug', qabila, elat va millatning ongi tashkil etadi.

Etnik ongning dastlabki shakli bo'lmish urug' va qabilalar ongining xususiyatlari shundan iboratki, unda ibtidoiy jamiyatning ijtimoiy borlig'i, uning madaniyati, urf-odat va an'analari, psixologiyasi va dunyoqarashi o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Har-xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzimda har xil ong va tafakkur uslubi mos keladi. Ijtimoiy jamoadagi urug' va qabilalar tafakkuri mutlaqo boshqacha xususiyatlariga ega bo'lib, bizning tafakkurimizdan keskin farqlanadi. Sinfiy tabaqalanish davri boshlanishi bilan aniq ko'zga tashlangan xususiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning vujudga kelishi etnik ongning yangi shakllari bo'lmish elat va milliy onglari vujudga keltiradi.

Etnik ongning shakllanishi va rivojlanishiga etnoslarning asrlar mobaynida ijtimoiy hayot faoliyati davomida vujudga kelgan psixik xususiyatlari, milliy urf-odat va an'alar, turmush-tarzi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Etnik ong ijtimoiy ongga nisbatan konkret tushuncha bo'lib, unda urug', qabila, elat millatning ijtimoiy hayoti va madaniyati, urf-odat va an'analari, tarixi, ijtimoiy psixologiyasi, dunyoqarashi aks etadi.

Ijtimoiy ong tarkibida etnik ong bilan bir qatorda ijtimoiy ruhiyat va ijtimoiy mafkura katta o'rin tutadi.

Ijtimoiy ruhiyat-psixologiya-kishilar, ayrim ijtimoiy guruhlar va sinflar hayotining bevosita mehnat, mavjud ishlab chiqarish vosita va qurollari, turmush tarzi ta'sirida vujudga kelgan ma'naviy qiyofali, kechinmalar, odatlar, urf-odat, an'analari, hissiyotlar kabilarning tarkibiga tushmagan nazariy jihatdan asoslanmagan, sistemalashmagan tarzdagi yig'indisidir.

Unda kishilarning maqsadlari, manfaatlari va muammolari aks etadi. Ijtimoiy psixologiya kundalik turmush tarzi ta'siri ostida vujudga keladi va shakllanadi, u hissiyot, kayfiyat, kechinmalar, qiziqishlarda namoyon bo'ladi. Milliy psixologiya esa - har bir millat vakilining milliy his-tuyg'ulari, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, psixik temperamenti, fe'l-atvori kabi munosabatlarni ifodalaydi.

Shakllangan milliy psixologiyaning tarkibiy qismini milliy harakter tashkil qiladi. O'zbek milliy harakter xususiyatlariga mehnatsevarlik, dovyuraklik, vatanparvarlik, insonparvarlik, erksevarlik, sabr-toqat va boshqa xalqlarga va shu millat vakillariga nisbatan munosabatlar kabilar kiradi. Har bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy munosabatlar yig'indisi milliy manfaatlariga mos keladigan o'z milliy harakter idealini yaratadi.

Milliy harakter o'zgarimas, turg'un narsa emas, u tarix maxsuli. SHunday ekan, milliy harakterni vujudga keltirgan ijtimoiy tuzumning o'zgarishi bilan u







